

Dehqonobodda katta futbol musobaqasi o'tkazildi

// 25.03.2024

<https://www.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/dehqonobodda-katta-futbol-musobaqasi-o-tkazildi>



Bugun, Dehqonobod tumanida "Navro'z" umumxalq bayrami munosabati bilan Tuman hokimligi, "O'zkiyosanoat" AJ hamda "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ tashabbusi bilan Dehqonobod tumani sektorlar tizimidagi mahallalar yoshlari hamda zavod xodimlari o'rtasida futbol bo'yicha "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ kubogi musobaqasi bo'lib o'tdi.



Futbol musobaqasida 16 ta jamoa o'zaro bellashdi hamda o'yin natijalariga ko'ra:

- 1-o'rin- "Chuchuquduq" mahallasi jamoasi;
- 2-o'rin- "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ jamoasi;
- 3-o'rin- "Tog'aytemir" mahallasi jamoasi egalladi.



Barcha g'olib jamoalarni sovrin bilan tabriklaymiz. G'oliblar diplom hamda pul mukofoti bilan taqdirlandi.



"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ Matbuot xizmati